



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I

2024-yil 22-yanvar

№ 22-U

Jizzax sh.

**Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq
hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari
bo’yicha maslahat kengashini tuzish to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi O‘RQ 562-son Qonunining 13-moddasida Davlat organlarining rahbarlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ishtirokida maslahat-kengash organlarini tuzish bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi O‘RQ 562-son Qonunining 13-moddasida Davlat organlarining rahbarlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ishtirokida maslahat-kengash organlarini tuzishi vazifasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax davlat pedagogika universitetining Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat kengashi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat kengashi Nizomi 2-ilovaga muvofiq, Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat kengashi ish rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. **Universitet Matbuot kotibi G.Sharipovaga, universitet Xotin qizlar kenagshi raisi Z.Kasimovaga:**

4.1. Jizzax davlat pedagogika universitetining rasmiy veb-saytida gender tenglik sahifasi ochilsin va uni materiallar bilan yangilab borilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor S.Nazarqosimov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-yanvardagi 2/15-4-sonli xati.

REKTOR:



SH.SHARIPOV

Loyihani kiritdi:

**Yoshlar masalalari va ma'naviy
ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektor**



S.Nazarqosimov

KELISHILDI:

Xodimlar bo'limi boshlig'I



I.Bo'riyev

**Monitoring va ichki nazorat
bo'lim boshlig'i:**



J.Qirjigitov

Katta Yuriskonsult:



A.Aliqulov

Jizzax davlat Pedagogika universiteti jamoatchilik asosida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlash masalalari bo'yicha tuzilgan maslaxat kengashi tarkibi.

- | | |
|--|---|
| 1. Nazarqosimov Sarvar
Inatullayevich | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha birinchi prorektor - kengash raisi |
| 2. Ibragimova Fazilat
Erkinovna | O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani-a'zo |
| 3. Buriyev Ilxom Saparovich | Xodimlar bo'limi boshlig'i – a'zo |
| 4. Qoshmuratov Bekzod
Abduraimovich | Yoshlar masalalari, ma'naviyat-ma'rifat
bo'limi boshlig'i – a'zo |
| 5. Abdurahmonov Fahriddin | Yurist konsult – a'zo |
| 6. Isomiddinova Yanglish
Tilovberdiyeva | Jizzax viloyati G'allarol tuman Savdo-sanoat
palatasi bo'lim boshlig'i – a'zo |
| 7. Kasimova Zumrad
Raxmatovna | Universitet xotin-qizlar maslaxat kengashi
raisi – a'zo |

Jizzax davlat pedagogika universitetida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha maslahat-kengash organi faoliyatini tashkil etish bo'yicha

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom universitetda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalariga ko'maklashish bo'yicha maslahat-kengash organlari (keyingi o'rinlarda Maslahat-kengashi)ning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Maslahat-kengashi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida mehnat jamoalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish, jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilishini bartaraf etishda ko'maklashish maqsadida davlat organi rahbarining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

3. Davlat organlarining hududiy tuzilmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarida alohida maslahat-kengashlari tuziladi, ularning faoliyati mazkur nizomga muvofiq ishlab chiqilgan nizom asosida amalga oshiriladi va bu borada jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

4. Maslahat-kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan gender tenglik va oila masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu nizom asosida amalga oshiradi.

5. Maslahat-kengashi qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, insonparvarlik, vatanparvarlik ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida faoliyat olib boradi.

2-bob. Maslahat-kengashining asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Maslahat-kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Universitetning vakolati doirasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish;

Universitet nomidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolarini o'rganish va bartaraf etilishga ko'maklashish, oilalaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitini yaxshilash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligini, huquqiy, ma'naviy, intellektual bilimlarini oshirish

sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

Universitetda jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni va axborotni muntazam ravishda yig'ishni hamda tahlil qilishni ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularni tiklash bo'yicha choralar ko'rishda ishtirok etish;

xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini takomillashtirishda ko'maklashish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha fuqarolarning madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish yuzasidan tegishli choralar ko'rishda ko'maklashish;

Universitet nomidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni amalga oshirishga faol jalb qilish maqsadida ular bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish;

xotin-qizlar va erkaklar kasbiy va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishi, xavfsiz, qulay va munosib mehnat sharoitlarining yaratishda, shu jumladan ham onalarga, ham otalarga bola parvarishi uchun ta'til berish orqali shart-sharoitlar yaratish bo'yicha davlat organlari tegishli mutasaddilarga taklif va tavsiyalar berish;

Davlat organlarining gender siyosatini amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha axborot-ma'rifiy tadbirlarni rag'batlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashda ishtirok etish;

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni Yuridik boshqarma tomonidan huquqiy (gender-huquqiy) ekspertizadan o'tkazishda manzilli ishtirokini ta'minlash;

davlat organida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha berilgan imtiyozlarning yaratilganlik holatini o'rganish va uning natijalari bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

faoliyat jarayonini gender tenglik nuqtai nazaridan monitoring qilish va baholashda faol ishtirok etish;

ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o'tkaziladigan suhbat yoki boshqa jarayonlarda ish beruvchi tomonidan gender genglik asosida vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda ishtirok etish;

rahbarlik lavozimlariga iqtidorli, talabchan va mas'uliyatli ayollar va erkaklar nomzodlarini tavsiya qilinishini ta'minlash;

xodimlarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarining buzilishiga doir murojaatlarni ko'rib chiqishda mutasaddi tizim xodimlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

xodimlarning ish joyidagi zo'ravonlikning turli shakllariga barham berish, kam ta'minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, imkoniyati cheklangan, nogiron erkak va xotin-qizlarga har tomonlama ko'maklashish choralarini ko'rish;

mehnat bozorida xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash, mehnat munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ishga joylashtirish, mehnat faoliyatini rag'batlantirish maqsadida erkak va ayollar bandligini ta'minlashda imkoniyatlar yaratish, kasbiy salohiyati va mehnat faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirib borish uchun shart-sharoitlarini yaratish, malakasini oshirishda ko'maklashish;

bir xil lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklarga oylik ish xaqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar teng to'lanishini monitoring qilish;

gender tenglikni ta'minlash bo'yicha boshqa vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari shuningdek, o'rnatilgan tartibda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Maslahat-kengashi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish maqsadida asosiy faoliyat yunalishlari sifatida qonunda taqiqlanmagan boshqa chora-tadbirlarni belgilashi hamda amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Maslahat-kengashining huquq va majburiyatlari

7. Maslahat-kengashi asosiy vazifa va funksiyalarini bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida davlat organidan kerakli hujjatlarni, statistik va tahliliy ma'lumotlarni so'rab olish va qabul qilish;

Davlat organi rahbari bilan kelishilgan holda o'tkaziladigan yig'ilishlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xodimlar hamda ularning oila a'zolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o'rganish;

xodimlarning roziligi bo'yicha ularning ishlash va yashash shart-sharoitlari bilan tanishish;

Davlat organining hududiy tuzilmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlariga Maslahat-kengashi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

Davlat organining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash yuzasidan davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarini ishlab chiqishda takliflar berish;

Davlat organida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy va boshqa ichki normativ hujjatlari loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun tarkibiy bo'linmalardan so'rab olish;

ichki idoraviy hujjatlarni tahlil qilish orqali aniqlangan gender tengsizlikni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va tegishli tarkibiy bo'linmalar yoki Yuridik boshqarmaga taqdim etish;

maslahat-kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

vazirlik tarkibiy va hududiy bulinmalaridan maslahat-kengashi faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni, statistika va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish;

zarur hollarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga vazirlik tomonidan berilgan javoblarda gender tenglik talablariga rioya qilinganligini tahlil qilish;

maslahat-kengashi yig'ilishlarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish buyicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

maslahat-kengashiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun milliy va xalqaro konferensiyalar, forumlar, seminarlar, uchrashuvlar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish va ularga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilish, shuningdek ular bilan hamkorlikda turli tadbirlar tashkil qilish;

Maslahat-kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

Vazirlik va idoralar faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilishi;

vazirlik va idoralar hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

gender tenglik asosida fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l quymasligi;

faoliyatini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiylikga rioya qilishi shart.

Maslahat-kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar va huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8. Maslahat-kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi majburiyatlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amalsh qilish;

Davlat organining mustaqilligi va uning ishiga aralashmaslik tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

Maslahat-kengashi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur yo'nalish doirasida boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

4-bob. Maslahat kengashining tarkibi

9. Maslahat-kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari kotib va a'zolar kiradi. Maslahat kengashi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradi.

Maslahat-kengashi tarkibi davlat organi xodimlari, tadbirkorlik sub'ektlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining vakillari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillaridan iborat tarkibda (9 nafargacha) shakllantiriladi.

Maslahat-kengashining a'zolari davlat organi rahbarining buyrug'i bilan ko'ngilli ravishda muayyan muddatga tarkibga kiritiladi va a'zolikdan chiqariladi.

Maslahat-kengashi raisi lavozimini bajarish (rahbarlik qilish) davlat organi rahbari o'rinbosarlaridan birining zimmasiga yuklatiladi.

11. Maslahat-kengashi raisi Maslahat-kengashi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

davlat organi faoliyatining tegishli sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga rioya etilishini ta'minlaydi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash holatini tahlil qiladi, gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar qo'llanilishining maqsadga muvofiqligini o'rganadi hamda ularni qo'llash to'g'risida takliflar kiritadi;

jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga barham berish yuzasidan axborot faoliyatini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda doimiy asosda amalga oshiradi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida gender ko'rsatkichlarini tahlil qiladi, monitoring ishlarini olib boradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqadi, tahlil qiladi hamda zarur hollarda ular haqida vakolatli organlarga xabar beradi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha xodimlarning kasbiy darajasini oshirish choralari ko'radi;

jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishning namoyon bo'lish faktlarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko'radi;

Maslahat-kengashi majlisini chaqirish va kun tartibini belgilash;

Maslahat-kengashi majlisiga raislik qilish;

Maslahat-kengashining ish rejasi, Maslahat-kengashi majlisining bayonnomasi va Maslahat-kengashining ish yurituviga oid boshqa hujjatlarni tasdiqlash;

Maslahat-kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

Maslahat-kengashi a'zolarining ularga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

Davlat organi rahbariyatiga Maslahat-kengashi tarkibiga a'zolari kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish bo'yicha takliflarni taqdim etish;

qonun hujjatlari va Maslahat-kengashi qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

12. Maslahat-kengashi raisi yo'qligida uning vakolat va vazifalarini Maslahat-kengashi raisining o'rinbosari amalga oshiradi.

13. Maslahat-kengashi raisining o'rinbosari:

Maslahat kengashi raisi bo'lmaganda maslahat-kengashi majlislariga raislik qiladi;

Maslahat-kengashi qarorlari bajarilishini nazorat qilish ishlarini tashkil etadi.

14. Maslahat-kengashi kotibi:

Maslahat-kengashining majlisiga kerakli hujjatlar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Maslahat-kengashi majlisining kun tartibi bo'yicha o'tishini tashkil etadi;

Maslahat-kengashi raisi bilan majlis o'tkazish muddati, joyi hamda taklif qilinuvchilar haqida maslahatlashadi;

Maslahat-kengashi a'zolari va taklif qilingan shaxslarni majlis o'tkazish joyi, sanasi va vaqti haqida xabardor qiladi;

Maslahat-kengashi qarorlarining bajarilishi monitoringini olib boradi va uning natijalarini Maslahat-kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha rahbariyatiga taklif kiritadi;

Maslahat-kengashi bayonnomasini rasmiylashtiradi hamda tasdiqlangan bayonnomani Maslahat-kengashi a'zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuborilishini ta'minlaydi;

qonun hujjatlari va Maslahat-kengashi qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15. Maslahat kengashi a'zolari:

Maslahat-kengashi majlislarida ko'riladigan masalalarni hal qilish va muhokama qilishda o'z vakolatlarini berish huquqisiz qatnashadilar. Maslahat-kengashi a'zolari ayrim hollarda Maslahat-kengashi majlislarida qatnasha olmagan taqdirda o'z fikrlarini yozma tarzda Maslahat-kengashi kotibiga taqdim etishlari mumkin. Ko'rsatib o'tilgan fikrlar majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha davlat organi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadilar.

Xodimlar va ularning oila a'zolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha Maslahat-kengashiga taklif kiritadilar.

4-bob. Maslahat kengashi faoliyatini tashkil etish

16. Maslahat-kengashining faoliyati ushbu Nizom asosida amalga oshiriladi.

17. Maslahat-kengashi faoliyatining asosiy masalalari Maslahat-kengashi majlislarida ko‘rib chiqiladi. Maslahat-kengashi majlisi Maslahat-kengashining ish rejasi asosida har chorakda kamida bir marotaba chaqiriladi.

Maslahat-kengashi raisi Maslahat-kengashi a‘zolarining kamida uchdan bir qismining yozma murojaati asosida navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.

19. Maslahat-kengashi majlisining kun tartibi loyihasi Maslahat-kengashi a‘zolarining takliflari va Maslahat-kengashi raisi topshirig‘i asosida Maslahat kengashi kotibi tomonidan shakllantiriladi.

20. Maslahat-kengashi majlislari uning raisi tomonidan olib boriladi. Rais ishtirok eta olmagan hollarda majlisga uning o‘rinbosari raislik qiladi.

Maslahat-kengashi majlislarida davlat organi rahbari, uning o‘rinbosarlari yoki boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

21. Maslahat-kengashi majlisi unga taklif qilingan shaxslarning uchdan ikki qismidan kam bo‘lmagan qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda qonuniy hisoblanadi.

Agar majlis olib borish uchun kvorum shakllanmasa, Maslahat-kengashining yangi majlis o‘tkazish sanasi e‘lon qilinadi.

22. Maslahat kengashining qarori uning majlisida qatnashayotgan a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Agar ovozlar teng kelib qolsa, Maslahat-kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

23. Maslahat-kengashi qaror qabul qilishda masalalarni erkin muhokama qilish, ovoz berish, jamoatchilik fikrini inobatga olish, tenglik va kollegiallikka asoslanadi.

24. Maslahat-kengashining har bir a‘zosi qabul qilingan qarorga o‘zining fikrlarini yozma tarzda bildirish huquqiga ega. Bunda fikrlar Maslahat-kengashi majlisi bayonnomasiga kiritib qo‘yiladi.

25. Maslahat-kengashining qarori qabul qilingan kundan boshlab uch kun ichida davlat organi rahbariga kiritiladi.

Maslahat-kengashining qarori tavsiyaviy xarakterga egadir. Agar qaror davlat organi rahbari tomonidan ma‘qullanmasa, davlat organi qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘n kundan kechikmasdan Maslahat-kengashiga asoslantirilgan javobini taqdim qiladi.

26. Tezkor qaror qabul qilish zarurati kelib chiqqanda, Maslahat-kengashining qarori Maslahat-kengashi raisi tashabbusi bilan Maslahat-kengashi a‘zolari bilan maslahatlashilgan holda so‘rov yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

27. Maslahat-kengashi majlisida qabul qilingan qaror majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma Maslahat-kengashi kotibi tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch kunlik muddatda Maslahat kengashi a‘zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

28. Maslahat-kengashi kotibi Maslahat-kengashi a‘zolari bilan birgalikda Maslahat-kengashi qarorlarini ijro etish yo‘llarini tizimli ko‘rib chiqadi, zarur hollarda Maslahat-kengashi raisiga takliflar kiritadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Maslahat-kengashining moddiy-texnik ta'minoti davlat organi tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

30. Maslahat-kengashi faoliyati ustidan nazoratni davlat organi rahbari amalga oshiradi.

31. Maslahat-kengashining qarorlari hamda davlat organi rahbarining Maslahat-kengashi faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilanga tartibda shikoyat qilish .

Jizzax davlat pedagogika universitetining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi” yillik ish rejasi

№	Chora-tadbirlar	Ijro muddati	Universitetdan mas’ul
1.	Universitetning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasida universitetda qabul qilinayotgan davlat dasturlari, ish rejalarini ishlab chiqishdagi ishtiroki kengaytirish choralari ko‘rish.	2024-yil yanvar-fevral	Maslahat kengashi a’zolari
2.	Universitet hamda fakultetlardada jinsi bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar va axborotlarni o‘rganish, muntazam ravishda ularni yig‘ish hamda tahlil qilish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a’zolari
3	Universitet hamda fakultetlarda jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlari ko‘rib chiqilish hamda ularni tiklash bo‘yicha ko‘rilgan choralarni o‘rganish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a’zolari
4.	Universitet hamda fakultetlarda xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta’minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi fakultetini takomillashtirish.	2024-yil may	Maslahat kengashi a’zolari
5	Universitet hamda fakultetlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha davlat xizmatchilarining madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish yuzasidan aniq choralarni belgilash.	2024-yil may	Maslahat kengashi a’zolari
6	Universitet hamda fakultetlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat dasturlari, milliy	2024-yil iyun	Maslahat kengashi a’zolari

	harakatlar rejalari va strategiyalarni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish		
7	Universitet hamda fakultetlarda xotin-qizlar va erkaklar kasbiy va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shu jumladan ham onalarga, ham otalarga bola parvarishi uchun ta'til berish imkoniyatidan xodimlarning foydalanishi yuzasidan targ'ibot ishlarni amalga oshirish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
8	Universitetda gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir ko'rilayotgan maxsus choralari, ularning maqsadi va natijasi yuzasidan fakultetlardali ishlarni olib borish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
9	Universitet hamda fakultetlardada mehnat bozorida xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ilgari surish, ishga joylashtirish uchun o'qitish hamda sharoitlar yaratish yuzasidan xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, uni yanada rivojlantirish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
10	Ishga qabul qilishda, mansabi o'sishda va rahbarlik lavozimlariga tayinlanishida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
11	Xotin-qizlar va erkaklarning sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydigan, xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish.	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
12	Universitet hamda fakultetlardaning rasmiy veb-saytida gender tenglik sahifasini materiallar bilan yangilanib borilish	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
13	Universitetning barcha fakultetlarda gender tenglik masalalari bo'yicha davra suhbatlari seminar trening tashkil etish	2024-yil avgust-oktyabr	Maslahat kengashi a'zolari
14	Universitet hamda fakultetlardadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj va og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar va erkaklarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan tegishli choralarni belgilash.	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari

15	Universitet hamda fakultetlardada xotin-qizlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish yuzasidan tegishli choralarni belgilash	Yil davomida	Maslahat kengashi a'zolari
16	Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish choralarni amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlarini ta'minlash, ish joyida xamda uyda tazyiq va zo'ravonlik ta'qiqlanganligi qoidalari aks ettirish.	2024-yil mart	Maslahat kengashi a'zolari

